

PEDAGOGIK MAHORAT EGALLASH YUZASIDAN DASTLABKI QADAMLAR

O.Suvanov

*Guliston davlat universiteti Pedagogika
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh mutaxassislar pedagogik faoliyatlarini muvoffaqiyatli olib borishlari uchun pedagogik mahoratning ilmiy nazariy asoslari va amaliy tatbiqini mukammal egallashlari uchun tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mahorat, pedagog, amaliyot, tajriba, ustoz – murabbiy, insonparvarlik, kasbiy bilimdonlik, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik texnika, nutq texnikasi.*

Yosh mutaxassislar pedagogik faoliyatlarini muvoffaqiyatli olib borishlari uchun pedagogik mahoratning ilmiy nazariy asoslari va amaliy tatbiqini mukammal bilishlari talab etiladi. Chunki har qanday faoliyat turi shu soha bo'yicha bajaruvchining mahorati natijasida yuksak darajada amalga oshishi hayotda o'z isbotini topgan.

Umuman mahorat haqida fikr yuritilganda, insonning kam kuch va vaqt sarflab sifatli natijaga erishishi, muvoffaqiyatli harakat qilishi, ustaligi, san'atkorligi tushuniladi. Mahorat butun hayot davomida tarkib topib boradi.

Pedagogik mahoratni ushbu mohiyatdan kelib chiqqan holda tavsiflanganda o'z imkoniyatlarini to'la ishga solib, pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish va yuqori natijani qo'lga kiritish deb hisoblash mumkun.

Pedagogik mahoratning nazariy asoslari maxsus pedagogik tayyorgarlik ko'rish jarayonida, ya'ni oliy o'quv yurtlarida tahsil olishlarida bilib olinadi. Amaliy jihatlari esa pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, bevosita tajriba orttirishda o'rganiladi. Shuning uchun ham pedagogik faoliyat mahoratni egallashning asosiy omili deb hisoblanadi.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida pedagogik mahoratning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish barobarida pedagogik amaliyot bilan ham mashg'ul bo'ladilar. Pedagogik amaliyot to'g'ri tashkil etilganda dastlabki mahorat ko'nikmalari shakllanib boshlaydi. Uning takomillashuvi dual ta'limning yo'lga qo'yilishida, hozirgi davrda talaba uchinchi, to'rtinchi bosqichda o'qiyotganida o'rindoshlik asosida cheklangan mehnat faoliyati bilan shug'illanishda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Pedagogik mahoratning asosiy qismi bevosita mehnat faoliyati bilan shug'illanishda takomiliga etadi. Yaqinda o'qituvchilik qilib boshlagan yosh mutaxassislar ta'lim va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahoratga oid muammoli vaziyatlarga duch kelishadi. Ularga maqbul echimlar topishda tajribali ustoz - murabbiylarga murojaat qilishlariga to'g'ri keladi. Uzoq yillik tajribamizdan kelib chiqqan holda ayrim metodik tavsiyalarni berishni ma'qul ko'rdik.

Birinchidan, o'zini muntazam insonparvarlikka yo'naltirib borish. Pedagogik insonparvarlik oddiy odamgarchilikdan tubdan farq qiladi. Endi kamol topib borayotgan,

hali ma'naviy barkamollikka to'la erishmagan o'quvchilarni bolaparvar bo'lgan o'qituvchigina to'g'ri tarbiyalay olishi mumkin.

Bolaparvarlik o'quvchining yosh va o'ziga xos xususiyatlarini aniq bilish hamda unga mos holda munosabatda bo'lishlikni taqozo etadi. Bolaning ko'ngli nihoyatda nozik bo'lgani uchun tez ta'sirlanadi. Ijobiy yoki salbiy munosabat darhol paydo bo'ladi. O'qituvchining ochiq ko'ngilligi, xushfe'lligi, mehribonligi va boshqa xislatlari muvoffaqiyat kaliti hisoblanadi. A.S.Makorenko ta'kidlaganidek, o'qituvchi o'quvchini yaxshi ko'rishi va unga mos holda talabchan bo'lishi ijobiy natija beradi.

Ikkinchidan, o'qituvchining bilimdonligi pedagogik mahoratning eng asosiy qirralaridan biri hisoblanadi. Ixtisoslik fanlarni mukammal bilish, uni o'quvchi ongiga etkazib berish, xilma-xil metod va usullardan foydalanish, o'quvchida fanga qiziqish uyg'ota olish, ilm-fanning sirli olamiga olib kirish eng zarur kasbiy sifatlar hisoblanadi. O'qituvchining dunyoqarashi keng bo'lishi, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni to'g'ri sharhlay olishi ham ahamiyatlidir.

O'qituvchi ijodiy fikrlaydigan, axborot kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalana oladigan bo'lishi davr talabiga aylandi. Buyuk allomalardan biri "O'qituvchi tinmasdan o'z ustida ishlashi, ko'p o'qishi zarur. Aks holda unda kasbiy sifatlar so'nib boshlaydi", degan. Pedagogik mahorat ko'p jihatdan o'qituvchining bilimdonligi, aqlliligiga bog'liq hodisa. Yosh o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini kuchaytirib borganida pedagogik faoliyatining samarasi ortib boradi.

Uchinchidan, pedagogik qobiliyatlarning shakllanishi. Har bir o'qituvchi o'zining didaktik, tarbiyachilik va ijtimoiy faollik qobiliyatlarini alohida e'tibor bergan holda takomillashtirishi zarur. O'qituvchida dars o'tish, tarbiyachilik qobiliyatlari ham uyg'un holda rivojlanishi foydali bo'ladi. Yosh o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik qobiliyatlarining rivojlanishiga e'tibor qaratishi kerak. Bekorga ulug'lar bir soatlik yaxshi darsni yirik asrga tenglashtirmaganlar. O'qituvchida rahbarlik, etakchilik, tashabbuskorlik qobiliyatlari ham foydali faoliyat yuritishga katta hissa qo'shadi. Qobiliyatingizni tinmasdan rivojlantirib boring, bu faqat o'zingizga, mehnat faoliyatingizga muvaffaqiyatlar keltiradi.

To'rtinchidan, boshlovchi o'qituvchi pedagogik texnika qirralarini tarkib toptirib, muntazam sayqallantirib borishi katta ahamyatga ega. O'qituvchining tashqi qiyofasi, xulq-atvori, o'zini tutushi, nafosat va nazokat ko'rinishlari yoshlarning ma'naviy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining ichki dunyosi, asab tizimi, hissiyotini mo'tadil bo'lishi, doim nazorat ostida turishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi mimik va pantomimik ta'sirchanlikka ega bo'lmog'i darkor. Uni samarali qo'llay bilishlik o'qituvchining ma'naviy ta'sirchanligini oshiradi. O'quvchilarning hushyorligini kuchaytiradi, diqqatini barqarorlashtiradi.

Beshinchidan, o'qituvchining nutqi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning bosh omili hisoblanadi. Shuning uchun ham yosh o'qituvchi qanday fandan dars berishidan qat'iy nazar aniq, ravon, tushunarli, sof adabiy tilda gapirishi zarur. O'qituvchining nutqi o'quvchining shaxs sifatida kamol topishida qimmatli ahamyatga ega. Har bir aytilgan fikr

ilmiy asosga ega bo'lishi, mantiqiy tugallik kasb etishi, o'rinsiz so'zlardan xoli bo'lishi talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi har kuni alohida nutqiy mashqlar bajarishi foydali bo'ladi. O'qituvchining so'z tanlashi va uni yoqimli talaffuz etishi o'quvchining xotirasini kuchaytiradi, esda saqlab qolishini orttiradi.

Oltinchidan, yosh o'qituvchi doimiy muloqotda bo'ladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishish ko'nikmasi, malakasi, mahorati madaniyat darajasida bo'lmog'i zarur. Muloqoti past bo'lgan o'qituvchilar butun sinfning diqqatini o'ziga qaratishga qiynaladi. O'qitadigan faniga qiziqadigan bir qancha o'quvchilar e'tibori markazida bo'ladi. O'quvchilarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratish salbiy oqibatlariga olib keladi. Hamma o'quvchilarni birdek ko'rish va bir xil munosabatda bo'lishga erishmoq zarur. Bunda o'quvchilarning ruhiy xususiyatlarini o'rganish, unga mos holda ish yuritish foydali hisoblanadi. Pedagogik muloqot imkon qadar demokratik xarakterga ega bo'lishi talab etiladi.

Etinchidan, yosh o'qituvchi o'quvchilarga ibrat-namuna ob'ekti sanaladi. Shuning uchun ham har doim, har qanday sharoitda o'zini ijobiy namuna bo'ladigan darajada tutmog'i talab qilinadi. Buning uchun har bir aytilgan so'zi, xatti- harakati, xulq atvori chuqur o'ylangan, o'lchangan holda amalga oshirilishi ma'qul bo'ladi. Maktabdan tashqarida, jamoat joylarida, ko'cha-kuyda, bozor-o'charda, o'yingoh va dam olish maskanlarida o'zini ijtimoiy talab darajasida tutushi kerak deb hisoblaymiz.

Sakkizinchidan, o'z ustida tinmasdan ishlashi, saviyasini muttasil orttirib borishi, tajribali ustoz-murabbiylarning faoliyatlarini kuzatishi va ulardan maslahatlar olib borishi kasbiy takomillashuviga ulkan hissa qo'shadi. O'qituvchi ko'p o'qishi, o'qiganini amaliy faoliyatlarda sinab ko'rishi uning kasbiy mahoratini yuqori darajaga olib chiqadi. Dastlabki xulosa shuki, o'qituvchi har kuni 24 soat o'zini o'qituvchi sifatida his etishi va shunga mos faoliyat yuritishi zarur deb hisoblaymiz. Ortiqcha avtoritarlikdan saqlanish o'quvchilar jamoasini mustahkamlaydi. O'qituvchini izlanuvchanlikka, topqirlikka, bag'rikenglikka yo'naltiradi. Pedagogik muloqot yoshlarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning hayotiyiligini, samaradorligini kuchaytiradi.

Bulardan tashqari, o'qituvchi o'ta mas'uliyatli bo'lmog'i kerak. Kasb yuzasidan bajaradigan har bir ishni aniq reja asosida chuqur o'ylagan va tahlil qilgan holda, eng nozik jihatlariga ham e'tibor qaratib vaqt me'yorida samarali foydalanishi muvoffaqiyat garovi hisoblanadi.

O'qituvchi uchun dars muqqadas amal bo'lmog'i zarur. Har bir darsni eng yuqori darajada tashkil etishi, o'tkazishi va o'z darsini tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi keyingi mashg'ulotlarni muvoffaqiyatli bo'lishiga ta'sir etadi.

Darsni o'z vaqtida boshlash va tugatish ham ahamiyatli. Butun dars davomida o'quvchilarning mustaqil fikirlashiga, ongli va faol ishtirok etishiga erishish zarur. O'quvchini navbatdagi darsni kutishga va undan yangi ma'lumotlarni olishga odatlantirishga intilish kerak. Buning uchun o'qituvchining ijodiy taffakuri shakillangan bo'lishi talab etiladi.

Yosh o'qituvchi tarbiyaviy tadbirlarda faol bo'lishi, o'zi o'quvchilar bilan hamkorlikda tadbirlarning mavzusini tanlashi, tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni shay qilishda tashabbus ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqimizda "Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak", degan qoida mavjud. Yosh o'qituvchi ushbu qoidaga amal qilmog'i, o'zining sha'nini musaffo saqlamog'i shart hisoblanadi.

Mahorat yillar davomida shakillanadi va sayqallanib boradi. O'qituvchini muallimlikdan ustoz-murabbiy darajasiga olib chiqadi. Shunga intilib yashagan har bir o'qituvchi yuksak pedagogik mahorat sohibiga aylanishi mumkin deb hisoblaymiz.